



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	
BYUDJET TASHKIOTLARIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HISOB, NAZORAT VA ICHKI AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY MAZMUNI	43
Abdulazizov Aziz Anvar o'g'li	
MAMLAKATIMIZ KOMPANIYALARI BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR.....	49
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
TIJORAT BANKLARIGA KAPITAL BOZORI ORQALI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH YO'LLARI.....	58
Qurbonova Vazira Ravshan qizi	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMINI BAHOLASHNING INSTITUTIONAL-MOLIYAVIY INTEGRAL INDEKSI	62
Bobojonova Shahnoza Otaxonovna	
DUNYODA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI	69
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	73
Муминжонов Анварбек Сайфитдин угли	
ANSWERING BUYER CARBON-DATA REQUESTS: A MINIMUM ACCOUNTING CONTOUR FOR SECOND-TIER EXPORTERS IN EMERGING ECONOMIES.....	82
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI	89
No'manov Javoxir Olimjon o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДЕГУРВА И ГЛОБАЛЬНОГО СЛОЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО СТЕПЕНИ УРБАНИЗИРОВАННОСТИ	96
Салимова Юлдуз Исаковна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH: RAQAMLI INFRASTRUKTURA VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	105
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	



O'ZBEKISTON MINTAQALARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH VA HUDUDLARARO TAFOVUTLARNI ANIQLASH.....	112
Ismatov Fazliddin Ibodovich	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	117
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	124
Рахмонов Мирвохид Ражабович	
ADVANCING SUSTAINABLE AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN THROUGH BILATERAL CARBON CREDITING MECHANISMS.....	133
Dilfuza Arifkhodjaeva	
Gulchekhra Nematullayeva	
Bakhtiyor Pulatov	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEKANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	141
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEKANIZIMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	150
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	156
Асомиддинова Музайянхон Абдурахмон кизи	
AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA KAMBAG'ALLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK EVOLYUTSIYASI HAMDA ZAMONAVIY BOSHQARUV KONSEPSIYALARI.....	164
Negmatullayeva Zarina Baxodirovna	
IQTISODIYOTDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISH VA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	171
Siddiqov Zoxid Tulkunovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING KOMPLEKS IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH VA MOLIVALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	178
Madrahimova Onajon Javlon qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI.....	184
Nizamov Aslitdin Badreddinovich	
SUDLARNI MOLIVAVIY JIHATDAN BOSHQARISHNING XUSUSIYATLARI.....	191
Toshev Yigitali Boboqulovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOT AXBOROTLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KOMPILYATSIYA QILISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	197
Bekberganova Farangiz Birodar qizi	
TOROID O'ZAKLI TO'G'RI CHIZIQLI HARAKAT IJRO ELEMENTINI DOIMIY MAGNIT VA CHULG'AMNING O'ZARO TA'SIRI ASOSIDA ELEKTROMAGNIT KUCH HOSIL BO'LISH JARAYONINI TADQIQ ETISH.....	202
Abdullayev Mahmudjon Muxammedovich	
НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМНОГО МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ УСЛУГАМИ В РЕГИОНАХ.....	214
Якубов Н.А.	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	221
Bauyetdinov M.J.	
Rustamova A.B.	



ЦЕНОВАЯ ПОЛИТИКА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИТНЕС-КЛУБОВ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ	226
Соловьева Фарангиз Анваровна	
AQSHDA XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH IQTISODIY MEKANIZMI AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	232
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	
XIZMATLAR SEKTORI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	237
Tursunova Shahlo Sayfillayevna	
DAVLAT SEKTORIDA KADRLAR TAQSIMOTINING TAHLILI	243
Xodjayev Furkat Salimovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНТЕЙНЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫМ ТРАНСПОРТОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	249
Ахмедова Дилафруз Муратовна	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA RAQAMLI TAFOVUT VA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING KONVERGATSIYA HAMDA DEKOMPZITSION TAHLILI	258
Murotjonova Mubina Dilshod qizi	
TURISTIK FIRMALARDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY TURISTLARNI JALB QILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	267
Tolibova Aziza To'liqin qizi	
THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF ENERGY COST ACCOUNTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	274
Ergasheva Maftuna Asad kizi	
INSON RESURLARINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA UNING MEHMONXONA BIZNESI KORXONALARIDAGI NAMOYON BO'LISHI	282
Narzullayeva Sarvinoz Askar qizi	
QURILISH KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINING TARKIBIY ELEMENTLARI VA AMAL QILISH TAMOIYILLARI	290
Mirzayeva Xulkar Abduladjon qizi	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINING TARKIBIY BARQARORLIGI: EVOLYUTSION CHIDAMLILIK VA TARMOQLARARO BOG'LIQLIKNING EKONOMETRIK BAHOSI	297
Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА ОРГАНИЗАЦИЙ	304
Адилова Сакина	
OLIJ TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT BUDJETINING ROLI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	310
M.M. Tashhodjaev	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA KELGUSIDAGI TA'SIRLARI	316
Qarshiyev Sherzodbek Bahromovich	
O'ZBEKISTONDA MUDORABA, MUSHORAKA VA VAKALA-ISTISMOR INSTRUMENTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA FOYDALANISHNI RAG'BADLANTIRISH YO'LLARI	322
Mirobidov Mirzohid Yaxyoyevich	

O'ZBEKISTONDA MUDORABA, MUSHORAKA VA VAKALA-ISTISMOR INSTRUMENTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA FOYDALANISHNI RAG'BADLANTIRISH YO'LLARI



Mirobidov Mirzohid Yaxyoyevich
Andijon davlat texnika instituti
“Menejment” kafedrası tayanch doktorant (PhD)
Email: ms11872594@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda mudoraba, mushoraka va vakala-istismor instrumentlarining rivojlanishini cheklovchi institutsional-huquqiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi — ushbu instrumentlarni prudensial jihatdan xavfsiz, tadbirkorlikka yo'naltirilgan yagona moliyalashtirish arxitekturasiga birlashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Qiyosiy institutsional tahlil, doktrinal huquqiy tahlil va tartibga solish bo'shlig'i tahlili uslublaridan foydalanib, O'zbekiston tajribasi Malayziya, Pokiston, BAA va Bahrayn bilan qiyoslandi hamda milliy qonunchilikning birlamchi matnlari (Soliq kodeksi, O'RQ-1126, O'RQ-1031, Markaziy bankning majburiy rezervlar va kapital monandligi to'g'risidagi nizomlari) so'zma-so'z tahlil qilindi. Natijada, yangi qonunchilik investitsion depozitlarni depozit-kafolati tizimidan chiqarish o'rniga unga rasman kiritayotgani, shuningdek, ularning majburiy rezerv va kapital monandligi rejimlarida hech qanday maxsus istisno yoki differentsiatsiyaga ega emasligi aniqlandi — bu xalqaro AAOIFI/IFSB PSIA rejimidan og'ishni bildiradi. Topilmalar asosida besh yo'nalishli institutsional islohotlar paketi taklif etiladi. Natijalar Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mudoraba; mushoraka; vakala-istismor; islomiy moliya; tadbirkorlikni moliyalashtirish; prudensial tartibga solish; O'zbekiston.

Abstract: This article examines the institutional and legal factors constraining the development of mudarabah, musharakah and wakala-istithmar instruments for financing entrepreneurial activities in Uzbekistan. The study aims to identify ways to integrate these instruments into a single, prudentially sound and entrepreneurship-oriented financing architecture. Using comparative institutional analysis, doctrinal legal analysis and regulatory gap analysis, Uzbekistan's experience is compared with that of Malaysia, Pakistan, the UAE and Bahrain. The primary texts of national legislation (the Tax Code, Laws No. LRU-1126 and LRU-1031, and the Central Bank's regulations on reserve requirements and capital adequacy) are also examined verbatim. The findings indicate that recent legislation formally incorporates investment deposits into the deposit guarantee system rather than excluding them from it. Furthermore, investment deposits are not subject to any specific exemptions or differentiated treatment under the reserve requirement and capital adequacy regimes, indicating a departure from the international AAOIFI/IFSB PSIA regime. Based on these findings, a five-track institutional reform package is proposed. The findings are of practical relevance to the Islamic Finance Council under the Central Bank.

Keywords: mudarabah; musharakah; wakala-istithmar; Islamic finance; entrepreneurship financing; prudential regulation; Uzbekistan.



Аннотация: В статье анализируются институционально-правовые факторы, ограничивающие развитие инструментов мудараба, мушарака и вакала-истисмар при финансировании предпринимательской деятельности в Узбекистане. Цель исследования заключается в выявлении путей интеграции данных инструментов в единую, пруденциально обоснованную и ориентированную на предпринимательство архитектуру финансирования. С использованием методов сравнительного институционального анализа, доктринального правового анализа и анализа регуляторных пробелов проведено сопоставление опыта Узбекистана с Малайзией, Пакистаном, ОАЭ и Бахрейном. Кроме того, осуществлён буквальный анализ первичных текстов национального законодательства (Налогового кодекса, законов № ЗРУ-1126 и № ЗРУ-1031, а также нормативных актов Центрального банка об обязательных резервных требованиях и достаточности капитала). В результате установлено, что новое законодательство официально включает инвестиционные депозиты в систему гарантирования вкладов, а не выводит их из данной системы. Кроме того, в рамках режимов обязательных резервов и достаточности капитала для инвестиционных депозитов не предусмотрены какие-либо специальные исключения или дифференцированный подход, что свидетельствует об отклонении от международного режима PSIA AAOIFI/IFSB. На основании полученных результатов предлагается пакет институциональных реформ по пяти направлениям. Полученные результаты имеют практическое значение для Совета по исламским финансам при Центральном банке.

Ключевые слова: мудараба; мушарака; вакала-истисмар; исламские финансы; финансирование предпринимательства; пруденциальное регулирование; Узбекистан.

KIRISH

O'zbekiston bank tizimining resurs bazasi tarixan aholi va yuridik shaxslar omonatlariga tayangan, bu esa resurslarning tannarxini kredit foiz stavkalari orqali real sektorga o'tkazadi. Foyda-zarar taqsimotiga (profit-and-loss sharing, PLS) asoslangan instrumentlar — mudoraba, mushoraka va vakala-istismor — bank yoki moliya vositachisi mablag' beruvchi bilan tadbirkor o'rtasida riskni taqsimlaydigan vositachi (mudorib yoki vakil) rolini bajaradigan, qarz emas, sheriklik yaratadigan moliyalashtirish mantig'ini taklif etadi. Xalqaro amaliyotda bunday instrumentlar kichik va o'rta tadbirkorlik (SME) segmentidagi moliyalashtirish tanqisligini qisman yumshatish salohiyatiga ega deb hisoblanadi, chunki ular garov talabiga emas, loyiha sifatiga asoslanadi [1; 2].

O'zbekistonda bu yo'nalish amaliy shaklga 2024-yildan e'tiboran kirdi: Markaziy bank mikromoliya tashkilotlariga (MFO) murabaha, ijara, salam, mudoraba va mushoraka asosida xizmat ko'rsatish huquqini bergan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil 26-iyuldagi "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3536-son¹ Nizomi tasdiqladi [3; 4]. 2025-yilga kelib sakkizta MFO ushbu instrumentlar orqali faoliyat yuritgan, umumiy hajm ≈21 mlrd so'mni (≈1,7 mln AQSH dollari) tashkil etgan, tuzilmada murabaha 63%, mudoraba 17%, mushoraka 14% ulushga ega bo'lgan [5]. 2026-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son² Qonuni qabul qilindi (29-iyunda kuchga kirdi) [6]; ushbu qonun to'liq islom banklari va an'anaviy banklardagi islom oynalaridan (Islamic windows) iborat ikki qavatli modelni, shuningdek, Markaziy bank huzurida beshta a'zodan iborat Islom moliyasi kengashini qonuniylashtiradi. 27-mayda Markaziy bank AAOIFga regulativ a'zo sifatida qo'shildi [7].

Shu bilan birga, mavjud hajmlar hozircha nisbatan kichik bo'lib, O'zbekiston bank tizimining umumiy aktivlariga nisbatan islomiy moliya ulushi o'nlab bazis punkt doirasida shakllanmoqda. Mazkur holatni mahsulotlar assortimenti va diniy talab bilan bir qatorda, instrumentlarning soliq, prudensial, depozit tasnifi va investorlarni himoya qilish rejimlari bilan institutsional jihatdan uyg'unlashuvi nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqish muhimdir. Maqolaning asosiy yondashuvi shundan iboratki, islomiy moliya instrumentlarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishda ularning mavjud institutsional va huquqiy mexanizmlar bilan muvofiqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro adabiyotda mudoraba va mushorakaning agentlik muammosi, axborot assimetriyasi hamda fiduciary/displaced commercial risk bilan bog'liq jihatlari keng yoritilgan bo'lsa-da [8; 9; 10; 11; 12; 13], O'zbekistonga oid mavjud tadqiqotlar asosan tavsiflovchi xarakterga ega [14; 15; 16; 17; 18; 19]. Shu nuqtayi nazardan, alohida huquqiy omillarni tizimli ravishda o'rganuvchi tadqiqotlar ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitish imkonini beradi [20]. Xususan, ushbu maqola doirasida o'tkazilgan birlamchi manbalar tahlili O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1126-son va 2025-yil 18-fevraldagi

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-7036330>

² <https://lex.uz/en/docs/-8099403>



“Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-1031-son³ Qonunlarida investitsion depozitlarning (qonun matnida — “investitsiyaviy omonat (depozit)”; quyida qisqacha “investitsion depozit” deb yuritiladi) depozit-kafolati tizimidagi o‘rniga alohida e‘tibor qaratilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, majburiy rezerv va kapital monandligi rejimlarida mazkur instrumentlar uchun maxsus istisnolar nazarda tutilmaganligi ularni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va islomiy moliya tamoyillariga muvofiqligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi [21; 22]. Ushbu natija xalqaro PLS nazariyasi va milliy amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni kuchaytirish, shuningdek, islomiy moliya instrumentlarini rivojlantirish uchun institutsional asoslarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning bosh maqsadi — O‘zbekiston uchun prudensial jihatdan asoslangan, xalqaro standartlarga (AAOIFI, IFSB) mos va tadbirkorlikka yo‘naltirilgan institutsional islohotlar paketini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bunga erishish uchun quyidagi tadqiqot savollari (Research Questions) shakllantirildi: RQ1 — O‘zbekistonda mudoraba, mushoraka va vakala-istismorning rivojlanishiga qanday institutsional-huquqiy omillar to‘sqinlik qiladi? RQ2 — xalqaro tajribadan (Malayziya, Pokiston, BAA, Bahrayn) qanday saboqlarni O‘zbekiston kontekstiga moslashtirish mumkin? RQ3 — prudensial, soliq va investor-himoya rejimlarini institutsional jihatdan qanday qayta loyihalashtirish mumkin? Ushbu savollarga javob berish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) mudoraba, mushoraka va vakala-istismorning iqtisodiy mohiyati va tadbirkorlik moliyalashtirishidagi o‘rnini aniqlash (RQ1); (2) xalqaro tajribada ushbu instrumentlarni joriy etishning institutsional to‘siqlarini tizimlashtirish (RQ2); (3) O‘zbekistonning amaldagi huquqiy bazasini (soliq, prudensial, depozit-kafolati qonunchiligi) birlamchi matnlar darajasida audit qilish (RQ1); (4) aniqlangan bo‘shliqlar asosida original konseptual model va institutsional islohotlar paketini ishlab chiqish (RQ3). Tadqiqot obyekti — O‘zbekistonda bank va mikromoliya tashkilotlari tomonidan qo‘llanilayotgan hamda O‘RQ-1126-son Qonuni orqali qonuniylashtirilayotgan islomiy moliya operatsiyalari tizimi; predmeti — ushbu operatsiyalarni tartibga soluvchi soliq, prudensial va investor-himoya munosabatlarining institutsional tuzilishi hamda ularning tadbirkorlikni moliyalashtirish salohiyatiga ta’siri.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, birinchi navbatda, shu bilan izohlanadiki, Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi hali o‘z ish rejasi va ustuvor standartlarini shakllantirish bosqichida turibdi — demak, aynan hozirgi davrda ilmiy jihatdan asoslangan, birlamchi huquqiy tahlilga tayangan tavsiyalarning amaliy ahamiyati alohida yuqori. Bundan tashqari, bank tizimining resurs bazasini kengaytirish va tadbirkorlik segmentidagi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish milliy iqtisodiyotning barqarorligi va real sektorni qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan ham muhim vazifa hisoblanadi — bu esa mudoraba, mushoraka va vakala-istismor kabi instrumentlarning institutsional jihatdan to‘g‘ri joylashtirilishini yanada dolzarblashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mudoraba — mablag‘ egasi (rabb al-mol) va tadbirkor-boshqaruvchi (mudarib) o‘rtasidagi sheriklik shartnomasi bo‘lib, kapitalni rabb al-mol, mehnat va boshqaruvni mudarib ta‘minlaydi; foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar (mudaribning beparvoligi yoki shartnoma buzilishi bo‘lmagan hollarda) faqat kapital egasi zimmasida qoladi. Mushoraka — ikki yoki undan ortiq tomon kapital va/yoki mehnatni birlashtiruvchi sheriklik bo‘lib, foyda kelishilgan nisbatda, zarar esa kapital ulushiga mutanosib taqsimlanadi. Vakala-istismor — mablag‘ egasi muvakkil, bank esa vakil sifatida qatnashadigan, odatda belgilangan haq (wakala fee) evaziga investitsiya qiluvchi shartnoma bo‘lib, rentabellik kafolatlanmagan holda qoladi. Ushbu uch instrument bir-birini almashtiruvchi emas, balki funksional jihatdan to‘ldiruvchi hisoblanadi: mudoraba — kapital safarbar etish, vakala-istismor — professional portfel boshqaruvi, mushoraka esa loyiha darajasidagi sheriklik uchun mos keladi.

Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasi [23] kapital egasi (printsipal) va boshqaruvchi (agent) manfaatlari orasidagi tafovutni tushuntiradi: boshqaruvchi zarar holatida ko‘p hollarda faqat o‘z mehnat xarajatini yo‘qotadi, bu esa moral hazard yoki shirking stimulini keltirib chiqarishi mumkin. Akerlofning axborot assimetriyasi nazariyasi [24] mablag‘ beruvchining loyiha sifatini oldindan to‘liq baholay olmasligi (adverse selection) muammosini izohlaydi, bu esa monitoring xarajatlarining yuqoriligiga olib keladi [12; 13]. Stiglitz va Weiss [25] tomonidan ishlab chiqilgan kredit-cheklash nazariyasi buni to‘ldiradi: axborot assimetriyasi sharoitida kreditor risk-tanlash va risk-stimul muammolarini narx orqali emas, kredit hajmini cheklash orqali boshqaradi — bu mantiq PLS mahsulotlari uchun ham dolzarb. Archer va Karim tomonidan ishlab chiqilgan «displaced commercial risk» va «fiduciary risk» tushunchalari [8; 9; 26] IFSB kapital monandligi standartlarining (IFSB-15, IFSB-23 [27]) asosiy dizayn elementlariga aylandi. Institutsional nazariya nuqtayi nazaridan [28], bu muammolarning ildizi rasmiy huquqiy me‘yorlar (formal rules) va ularning amaldagi ijro mexanizmlari (enforcement) o‘rtasidagi tafovutda yotadi — bu O‘zbekiston kabi endigina shakllanayotgan

3 <https://lex.uz/ru/docs/-7389404>



bozorlar uchun ayniqsa dolzarb. Diamond va Dybvig [29] ishlab chiqqan moliyaviy vositachilik nazariyasiga ko'ra, bank yoki moliya vositachisi likvidlilik transformatsiyasi va risk taqsimoti funksiyasini bajaradi; PLS instrumentlarida bu funksiya mudorib/vakil rovida namoyon bo'ladi, biroq an'anaviy depozitdan farqli o'laroq, natija oldindan kafolatlanmaydi — «yuqori risk — yuqori kafolatlangan daromad» mantig'i islom moliyasi tamoyillari jihatidan ham, nazariy jihatdan ham asossiz, chunki profit-sharing tabiatiga ko'ra faqat taqsimot nisbati kelishiladi, mutlaq summa emas.

Chapra [30] va Iqbal va Mirakhorning [31] normativ-nazariy asoslamasiga ko'ra, PLS moliyalashtirish moliyaviy vositachini real iqtisodiy natija bilan bevosita bog'laydi. PLS instrumentlarining asosiy nazariy afzalligi — garov o'rniga loyiha pul oqimi va sheriklik asosida moliyalashtirish imkoniyati, bu esa moddiy aktivga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun financing gapni qisman yumshatishi mumkin [1; 2; 32]. Biroq amaliyotda bu salohiyat to'liq ro'yobga chiqmagan: Malayziya va Pokiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, mushoraka SME segmentida kutilgan darajada keng tarqalmagan — sababi yuqori monitoring xarajatlari, ixtisoslashgan kadrlar yetishmasligi va bank risk-menejment tizimlarining qarz mahsulotlariga moslashtirilganligidir [2; 11; 12; 13].

Investitsiya hisobvaraqlari egalarining (IAH) huquqiy maqomi — na oddiy depozitor, na aksiyador maqomiga to'liq mos kelmaydigan oraliq holat, «quasi-equity» sifatida ta'riflanadi [10; 26]. IFSB va AAOIFI standartlari (islom moliyasi standarti №13 «Mudoraba» [33] va №12 «Sharikah (Musharakah)» [34]) IAHlarni odatda depozit-kafolati tizimidan tashqarida qoldirishni tavsiya etadi. O'zbekiston holatida, quyida ko'rsatilganidek, qonunchilik boshqacha yo'ldan bormoqda — bu xalqaro standart va milliy amaliyot o'rtasidagi diqqatga sazovor tafovutdir.

O'zbekistonda islomiy moliya bo'yicha adabiyot so'nggi ikki-uch yilda faollashdi: kichik va o'rta tadbirkorlarning islomiy moliyaga bo'lgan niyati [14], islomiy kapital bozori istiqbollari [15], SME moliyalashtirish usullari [16], institutsional-iqtisodiy mexanizmlar va huquqiy yo'llar [17; 18] hamda xalqaro tajribaning umumlashmasi [19] yoritilgan; Asadov va Turaboev alohida O'zbekistonda islomiy moliyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi huquqiy to'siqlarni tahlil qilgan [20]. Bu ishlarning umumiy xususiyati — ular ko'proq tavsiflovchi (descriptive) tabiatga ega bo'lib, O'zbekistonning aniq huquqiy matnlarini (Soliq kodeksi bandlari, Markaziy bank nizomlari, depozit-kafolati qonunchiligi) birlamchi manba darajasida so'zma-so'z tahlil qilishga qaratilmagan. Shu bo'shliqni yopish uchun quyidagi uchta original kuzatuv ilgari adabiyotda qayd etilmagan: (i) O'RQ-1126-son Qonuni investitsion depozitlarni to'liq qaytarish kafolatidan ozod qilinadigan ro'yxatdan aniq chiqarib tashlaydi; (ii) O'RQ-1031-son Qonuni investitsion depozit shartnomasini depozit-kafolati tizimi tushunchalariga rasman kiritadi; (iii) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 25-apreldagi "Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3002-son⁴ Nizomi (eng so'nggi — 3002-5-son tahrir) ham [21], 2025-yil 28-oktabrdagi "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3697-son⁵ Nizomi ham [22] investitsion depozitlar uchun hech qanday maxsus istisno yoki differensiallashtirilgan rejimni nazarda tutmaydi. Ushbu uch topilma birgalikda tadqiqot bo'shlig'ini shakllantiradi va maqolaning qolgan qismi shu bo'shliqni yopishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot bir necha metod kombinatsiyasiga tayanadi: qiyosiy institutsional tahlil (O'zbekiston tartibga solish arxitekturasida Malayziya, Pokiston, BAA va Bahrayn tajribasi bilan qiyoslanadi — so'nggisi IFSB «alpha» koeffitsiyentini aniq raqamli qiymatda belgilagan tekshirilgan misol sifatida alohida kiritildi); doktrinal huquqiy tahlil (O'zbekiston Soliq kodeksi, O'RQ-1126, O'RQ-1031 va Markaziy bankning 3002-son Nizomi kabi birlamchi matnlar so'zma-so'z tahlil qilinadi, tahrirlar tarixi kuzatiladi); tartibga solish bo'shlig'i tahlili (aniq ko'rsatma yo'q sohalar tizimli xaritalanadi); tizimli adabiyot sharhi (Scopus/Web of Science indekslangan jurnallar, Google Scholar va institutsional repozitoriylar — ResearchGate, Emerald, DOAJ — bo'yicha 2026-yil sentabr holatiga «mudorabah entrepreneurship finance», «musharakah SME», «wakala investment Islamic banking», «Islamic banking capital adequacy», «displaced commercial risk», «Islamic finance Uzbekistan» kalit so'zlari bilan qidiruv o'tkazildi; tanlash mezonlari — instrumentning huquqiy-institutsional yoki risk-taqsimlash jihatiga bevosita tegishli, so'nggi ikki-uch o'n yillikda chop etilgan, tengdosh tomonidan taqrizdan o'tgan nashrlar; alohida-alohida tavsiflovchi, tegishli bo'lmagan natijalar chiqarib tashlandi); va tasviriy statistika (Markaziy bank va matbuot orqali e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar). Birlamchi manbalar — O'zbekiston qonun hujjatlari va Markaziy bank normativ-huquqiy hujjatlari — lex.uz milliy huquqiy ma'lumotlar bazasi va Markaziy bankning rasmiy saytidan olingan asl matnlar asosida tahlil qilindi; ikkilamchi manbalar — xalqaro standartlar (AAOIFI, IFSB) va akademik

4 <https://lex.uz/uz/docs/-3697778>

5 <https://lex.uz/uz/docs/7793613>



nashrlar. Matbuot manbalari (Gazeta.uz, Kursiv Media) faqat hali akademik adabiyotda yoritilmagan, real vaqtdagi amaliy ko'rsatkichlar (MFO hajmi, banklarning tayyorgarlik holati) uchun, Markaziy bankning rasmiy hisobotlarini to'ldiruvchi ikkilamchi manba sifatida ishlatildi — ilmiy da'volar faqat birlamchi huquqiy matnlar va tekshirilgan akademik/rasmiy manbalarga tayanadi.

Muhim metodologik cheklov: O'zbekiston bo'yicha uzoq muddatli vaqt qatorlari statistikasi hozircha yetarli emas, shu sababli regressiya tahlili yoki boshqa ehtimoliy-statistik xulosa chiqarish usullari qo'llanilmadi va soxta empirik natijalar taqdim etilmaydi — tahlil tasviriy statistika va institutsional-huquqiy dalillarga tayanadi. MFO va bank darajasidagi mikro-ma'lumotlar to'planganidan so'ng, panel-ma'lumot yoki kvazi-eksperimental tahlil o'tkazilishi kelgusi tadqiqot yo'nalishi sifatida tavsiya etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mudoraba shartnomasida mudarib kapital egasi oldida ikkilamchi majburiyatga ega — investitsiya siyosatidan chetga chiqmaslik va ehtiyotkor tadbirkor standartida harakat qilish; ikkinchi majburiyatning nazorat qilinishi qiyinligi fiduciary riskni keltirib chiqaradi, chunki mudaribning yetarlicha ehtiyotkorlik ko'rsatmagani kapital egasiga zarar sifatida qaytishi mumkin, biroq buni isbotlash huquqiy jihatdan murakkab [8; 26]. Musharaka va mudorabada moliyalashtiruvchi tomon loyiha pul oqimi va boshqaruv qarorlarini doimiy kuzatib borishi zarur; Malayziyadagi musharaka mutanaqisa (uy-joy) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, hatto rivojlangan dual-banking tizimida ham banklar huquqiy-operatsion murakkablik va monitoring yukini asosiy sabab sifatida ko'rsatib, musharaka mahsulotlarini taklif etishga ikkilanishadi [2]; Indoneziyada o'tkazilgan empirik tadqiqot esa musharaka moliyalashtirish mudorabaga nisbatan kredit riskini sezilarli darajada yuqoriroq oshirishini aniqlagan [11].

An'anaviy Basel III risk-og'irlikka asoslangan kapital talablari PLS aktivlarini ko'pincha oddiy kreditga o'xshash 100% risk-og'irlikda baholaydi. IFSB-23 [27] bu muammoni investment account holders (IAH) tomonidan taqsimlanadigan riskni hisobga oluvchi «alpha» (α) koeffitsiyenti orqali bartaraf etishga harakat qiladi: $RWA(jami) = RWA(bank\ o'z\ aktivlari) + (1 - \alpha) \times RWA(cheklanmagan\ PSIA\ bilan\ moliyalashtirilgan\ aktivlar) + RWA(operatsion\ risk)$. Bahrayn Markaziy banki (CBB) Rulebook (Vol. 2, Islamic Banks — CA) amaliyotida bu koeffitsiyent aniq 30% qilib belgilangan [35] — bu «alpha»ni mavhum tushuncha emas, balki tartibga soluvchi tomonidan belgilanadigan aniq raqamli parametr sifatida joriy etish mumkinligini ko'rsatadi. Garov masalasida esa klassik fiqh va AAOIFI standartlariga ko'ra, mudarib faqat ta'addi (qasddan me'yorbuzarlik), taqsir (beparvolik) yoki shartnoma shartlari buzilgan holatlarda javobgar bo'ladi [33; 34]; ushbu uch mezonning protsessual jihatdan aniq belgilanmaganligi PLS mahsulotlarining kredit-risk profilini qarz mahsulotlariga nisbatan yomonlashtiruvchi omillardan biri sifatida qayd etiladi [12]. Islom moliyasi nazorati kengashlarining tashkiliy mustaqilligi (ular ko'pincha bank tomonidan moliyalashtiriladi) potensial manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi; bu muammo xalqaro amaliyotda markazlashtirilgan, milliy darajadagi Islom moliyasi kengashlari (masalan, Malayziyadagi Shariah Advisory Council) orqali qisman hal qilinadi (1, 2-jadvallar).

1-jadval. Mudoraba, mushoraka va vakala-istismorning qiyosiy tavsifi⁶

Ko'rsatkich	Mudoraba	Mushoraka	Vakala-istismor
Kapital beruvchi	Faqat rabb al-mol	Barcha sheriklar	Muvakkil (investor)
Boshqaruvchi	Mudarib (mehnat)	Barcha sheriklar (yoki bittasi)	Vakil (bank/vositachi)
Risk taqsimoti	Zarar — kapital egasida	Zarar — kapital ulushiga mutanosib	Zarar — muvakkilda (agar vakil beparvolik qilmasa)
Boshqaruvchi daromadi	Kelishilgan foyda ulushi	Kelishilgan foyda ulushi	Belgilangan vakala haqi (fee)
Asosiy bottleneck	Fiduciary/monitoring risk	Monitoring xarajati, garov ziddiyati	Fee-riskning kam bo'lishi
O'zbekiston uchun imkoniyat	Investitsion depozit, MFO amaliyoti	Loyiha-darajasidagi SME moliyalashtirish	PPP va infratuzilma loyihalari

6 Manba: Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Xalqaro tartibga solish tajribasi (umumlashtirilgan)⁷

Yurisdiksiya	Kapital/prudensial yondashuv	Asosiy bottleneck	O'zbekiston uchun saboq
Malayziya	IFSB-15/23 asosida differensiallashtirilgan risk-og'irlik, markazlashtirilgan Shariah Advisory Council	Banklarning musharaka mahsulotlarini taklif etishga ikkilanishi [2]	Markazlashtirilgan islom moliyasi kengashi modeli samarali
Pokiston	SBP 2025-yilga kelib 20 ta AAOIFI islom moliyasi standartini rasman qabul qilgan (bosqichma-bosqich) [36]	Musharaka/mudoraba kredit-risk profilining yuqoriroq bo'lishi (qiyosiy topilma) [11]	Musharakani pilot loyihalar orqali bosqichma-bosqich joriy etish
BAA	CBUE prudensial ramkasi, IFSB-23ga muvofiqlashtirish jarayonida	Investitsiya hisobvarag'i egalari huquqiy maqomining aniq emasligi	PSIA uchun aniq huquqiy ta'rif zarurligi
Bahrayn	CBB Rulebook: alpha (α) 30% qilib belgilangan [35]	Cheklanmagan PSIA bo'yicha risk taqsimotini son jihatidan aniqlashtirish zarurati	Alpha koeffitsiyentini aniq raqamli qiymat sifatida belgilash amaliyni osonlashtiradi
O'zbekiston	Hali shakllanish bosqichida (O'RQ-1126, 2026)	Majburiy rezerv va kapital monandligi rejimlarida maxsus istisno yo'q (quyida)	—

O'zbekistonda islomiy moliyaning amaliy shaklga kirishi bir necha aniq bosqichdan iborat bo'ldi. Markaziy bank 2024-yil 26-iyulda 3536-son Nizomni tasdiqladi — unda MFOLar uchun murabaha, ijara, salam, mudoraba va mushoraka operatsiyalarini AAOIFI standartlari asosida amalga oshirish tartibi, shu jumladan, kamida besh a'zodan iborat maxsus kengash va alohida buxgalteriya hisobi talabi belgilandi [3; 4]. 2025-yilga kelib sakkizta MFO faoliyat yuritgan (hajm $\approx$ 21 mlrd so'm; murabaha 63%, mudoraba 17%, mushoraka 14%) [5]; 2026-yilning birinchi besh oyida hajm 22 mlrd so'mga, faol MFOLar soni o'n ikkiga yetdi [5]. 2026-yil 27-martda O'RQ-1126-son Qonun qabul qilindi (29-iyunda kuchga kirdi) [6] — u O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son⁸ Qonunga bank islomiy moliya operatsiyalarining to'liq ro'yxati va islom banki litsenziyasi tartibini, Markaziy bank to'g'risidagi qonunga Islom moliyasi kengashini tashkil etish normalarini, shuningdek, Fuqarolik va Soliq kodeksiga hamda O'RQ-1031-son Qonuniga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi. 27-mayda Markaziy bank AAOIFlga regulativ a'zo sifatida qo'shildi [7]. Kengashning aniq ish rejasi va ustuvor standartlari hali rasman e'lon qilinmagan [6] — bu ushbu maqola tavsiyalarining amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan bevosita yo'nalishi. 2026-yil avgust holatiga o'nga yaqin bank islomiy moliyani joriy etishga tayyorgarlik ko'rmoqda [37], ba'zilar allaqachon yo'l xaritasini e'lon qilgan [38]; mahsulot tuzilmasidagi murabaha ustunligi (63%) global tendensiyaga mos keladi, chunki u risk-menejment nuqtayi nazaridan an'anaviy kreditga eng yaqin va banklar uchun eng oson joriy etiladigan mahsulot hisoblanadi.

Soliq kodeksining 378-moddasi 23-bandiga ko'ra, shaxsiy investitsiya hisobvarag'i (SIH) orqali mahalliy bozorda chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag' daromad solig'idan ozod qilinadi [39; 40], biroq bu imtiyoz faqat qimmatli qog'ozlarga tegishli — mudoraba investitsiya hisobvarag'i alohida ko'rsatilmagan. 2026-yilda kiritilgan yangi 71²-bob (480³–480⁴-moddalar) bu bo'shliqni qisman to'ldiradi, islomiy qimmatli qog'ozlar va vositachilik shartnomalarini QQSdan ozod qiladi [6], biroq bu faqat QQS bo'yicha imtiyoz — SIH tipidagi daromad solig'i imtiyozining mudoraba sertifikatlariga kengaytirilishi hali alohida qonun o'zgartirishini talab qiladi.

Tadqiqotning eng muhim original topilmasi — investitsion depozitning huquqiy-prudensial maqomida to'rtta qatlamni farqlash zarurligi: islom moliyasi jihatidan mohiyati, huquqiy-regulyativ tasnif (kafolat), depozit-kafolati tizimi va majburiy rezerv rejimi; bular hozircha bir-biriga to'liq mos emas. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning O'RQ-1126 orqali o'zgartirilgan 6-moddasiga ko'ra, vakala va murabaha operatsiyalari asosida jalb etilgan mablag'lar — investitsiyaviy omonatlar (depozitlar) bundan MUSTASNO — to'liq qaytarish majburiyatidan ozod qilinadi [6; 41]; «mustasno» so'zi investitsion depozitlarni aynan shu ozod qilish ro'yxatidan chiqarib tashlaydi, ya'ni ular amaldagi to'liq kafolatga ega bo'lib qoladi. Bu xulosa O'RQ-1031ga kiritilgan ikkita o'zgartirish orqali ham tasdiqlanadi: investitsion depozit shartnomasi qonun tushunchalar tizimiga rasman kiritiladi, islomiy bank esa depozit-kafolati tizimida ishtirok etishi shart deb belgilanadi [6; 42]. To'rtinchi qatlam — majburiy rezerv rejimi — birlamchi manba darajasida alohida tekshirildi: Markaziy bankning majburiy rezervlar to'g'risidagi 3002-son Nizomi, eng so'nggi (2025-yil 23-dekabrdagi 3002-5-son) tahririda ham, rezerv

7 Manba: Muallif ishlanmasi.

8 <https://lex.uz/docs/-4581969>



shakllantiriladigan majburiyatlar ro'yxatida (1-ilova, 19-band) investitsion depozitlar uchun hech qanday istisno yoki alohida koeffitsiyent nazarda tutmaydi — ro'yxat standart talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli depozit hisobvaraqlari hamda mijozlarning boshqa depozitlari kabi umumiy kategoriyalarga asoslangan [21]; bundan tashqari, banklarning hisobvaraqlar rejasini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 26-noyabrdagi "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 3336-son⁹ qarorda (2025-yil 22-iyuldagi 3336-3-son tahririgacha) ham investitsion depozit uchun alohida balans hisobvarag'i kodi hali mavjud emas — amalda u mavjud umumiy depozit hisobvaraqlaridan biri orqali yuritilishi kerak bo'ladi, bu esa uni avtomatik ravishda majburiy rezerv bazasiga kiritadi [43]. Demak, barcha to'rtta qatlam ham bir yo'nalishda — investitsion depozitni an'anaviy depozitga yaqinlashtirish tomon — ishlaydi, bu esa PLS instrumentining risk-taqsimlashga asoslangan iqtisodiy mohiyati bilan uning huquqiy-prudensial rejimi o'rtasida institutsional ziddiyat yaratadi (3-jadval).

3-jadval. Investitsion depozitning to'rt qatlamli huquqiy-prudensial tasnifi¹⁰

Qatlam	Amaldagi holat	Manba
Islom moliyasi jihatidan mohiyati	Vakala/mudoraba asosida, kafolatlanmagan, foyda-zarar taqsimotiga asoslangan	[33; 34]
Huquqiy-regulyativ tasnif (kafolat)	To'liq qaytarish majburiyatidan OZOD QILINMAYDI — «mustasno» band orqali kafolat saqlanadi	O'RQ-1126, 6-modda [6; 41]
Depozit-kafolati tizimi	Tizimga RASMAN KIRITILADI; litsenziyalı islomiy bank ishtirok etishi SHART	O'RQ-1031, 3- va 14-modda [6; 42]
Prudensial (majburiy rezerv)	Maxsus istisno YO'Q — 1-ilovadagi 19 banddan iborat ro'yxat standart depozit hisobvaraqlariga asoslangan	3002-son Nizom, 3002-5 tahrir [21]

IFSB-23 [27] PLS aktivlari uchun risk-og'irlikni bankning haqiqiy iqtisodiy ekspozitsiyasiga moslashtirishni tavsiya etadi, biroq O'zbekiston Markaziy bankining 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi 3697-son Nizomi — garchi u o'z qamrovini islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga ham aniq yoyishini birinchi bandida alohida ta'kidlasa-da [22] — birlamchi matn darajasida tekshirilganda mudoraba, mushoraka, vakala yoki foyda-zarar taqsimoti bo'yicha biror-bir alohida band yoki differensiallashtirilgan risk-og'irlik toifasini o'z ichiga olmaydi; barcha aktivlar reyting yoki standart toifalar bo'yicha bir xil tartibda baholanadi. Xuddi shu naqsh 2026-yil 10-sentabrda ro'yxatdan o'tgan va aktivlar sifatini tasniflash hamda zaxira shakllantirish tartibini yangilagan 3937-son Nizomda ham kuzatiladi — u ham islomiy banklarni qamrab oladi, biroq PLS aktivlari uchun alohida tasniflash mezonini yoki zaxira normasini taqdim etmaydi [44]. Markaziy bankning 2025-yil yakuni bo'yicha «Moliyaviy barqarorlik sharhi»ga ko'ra (2026-yil 1-yanvar holatiga), bank tizimining umumiy kapital yetarliligi koeffitsiyenti (CAR) 18,3%, asosiy kapital (CET1) koeffitsiyenti 14,7% — ikkalasi ham me'yoriy talabdan yuqori; NPL ulushi 3%gacha qisqargan, zaxiralar bilan qoplanish darajasi 87%dan 94%ga oshgan [45]. Ushbu yuqori kapital bufferi PLS instrumentlari uchun differensiallashtirilgan rejimni tajriba tariqasida joriy etish uchun institutsional zaxira mavjudligini ko'rsatadi.

Resurs tannarxini rasmiy taqqoslash uchun quyidagi formula taklif etiladi: Umumiy resurs tannarxi (TCF) = Kutilgan investor daromadi + Majburiy rezervda muzlatilgan mablag'ning yo'qotilgan foiz daromadi + Operatsion/monitoring xarajati + Soliq yuklamasi. Mudoraba investitsion depoziti uchun majburiy rezerv komponenti hali saqlanib qolmoqda — demak, joriy holatda mudorabaning resurs tannarxi ustunligi faqat soliq komponenti orqaligina yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli Soliq kodeksining 378-moddasi 23-bandidagi SIIH imtiyoziga o'xshash mexanizmni mudoraba investitsion depozitlariga tatbiq etish taklif etiladi — bu boshqa ikkita komponent (majburiy rezerv, operatsion xarajat) bo'yicha islohotlar amalga oshirilgunga qadar qisman muvozanatlashtiruvchi chora sifatida. Imtiyozni loyihalashtirishda oltita muqobil model (universal, maqsadli, chegaralangan, real sektorga bog'langan, ish o'rniga bog'langan, depozitga asoslangan) ko'rib chiqilishi mumkin; muallifning bahosicha, real sektorga bog'langan va depozitga asoslangan variantlar kombinatsiyasi O'zbekiston uchun eng asosli ko'rinadi, chunki bu soliq arbitraji va imtiyozning mikromoliya segmentiga «oqib ketish» riskini kamaytiradi.

Majburiy rezerv masalasida — 3002-5-son Nizomning 1-ilovasidagi ro'yxat hali investitsion depozit uchun umuman tartibga solinmagan bo'shliq bo'lgani sabab — Markaziy bank ushbu ro'yxatga alohida band yoki IFSB-23dagi alpha-koeffitsiyent mantig'iga o'xshash past koeffitsiyentli rejim kiritishi mumkin. Bu, depozit-kafolati masalasidan farqli o'laroq, kafolat hajmini qisqartirishni talab qilmaydi: qonun chiqaruvchi O'RQ-1031

9 <https://lex.uz/ru/docs/-5744540>

10 Manba: Muallif ishlanmasi.



orqali investitsion depozitlarni kafolat tizimiga ongli ravishda kiritgan (O'RQ-1126, 6-modda; O'RQ-1031, 3- va 14-modda), shu sababli ushbu maqola depozit-kafolatini qisqartirish yoki undan ozod qilishni taklif etmaydi — faqat majburiy rezerv va kapital monandligi rejimlarini investitsion depozitning haqiqiy risk-taqsimlash profiliga moslashtirishni taklif etadi.

Kapital yaroqliligi bo'yicha uchta model taklif etiladi: MODEL A — mavjud amaliyot (PLS aktivlari an'anaviy kredit bilan bir xil baholanadi, banklarni PLS mahsulotlarini taklif etishdan qaytaradi); MODEL B — IFSBgga to'liq muvofiqlashtirilgan yondashuv (yuqoridagi alpha-formulaga asoslangan, Bahrayn misolidagi kabi [35], biroq shaffof profit equalization reserve infratuzilmasini talab qiladi); MODEL C — gibril yondashuv (2026–2028-yillarda mudoraba/mushoraka portfelining kichik, alohida belgilangan qismi — masalan, umumiy portfelning 5%igacha — uchun yengillashtirilgan rejim pilot tartibida joriy etiladi). Bank tizimining yuqori kapital bufferini (18,3% CAR, 14,7% CET1 [45]) hisobga olgan holda, Model C amaliy joriy etish uchun eng real variant sifatida taklif etiladi.

Investorlarni himoya qilishda NPL darajasi (3% [45]) yagona mezon sifatida emas, balki kapital yaroqliligi, likvidlilik, korporativ boshqaruv sifati, islom moliyasi tamoyillariga muvofiqlik va oshkoralikni birgalikda baholaydigan ko'p o'lchovli eligibility framework tarkibida ishlatilishi tavsiya etiladi. Garov masalasida muallif tanqidiy pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi: garov faqat ta'addi, taqsim yoki shartnoma buzilishi isbotlangan holatlarda qo'llanilishi, genuine biznes zarari esa garov orqali avtomatik qoplanmasligi kerak [33; 34]. Vakala-istismor, professional-boshqaruv xarakteri tufayli, davlat-xususiy sheriklik (PPP) va infratuzilma moliyalashtirishi uchun eng istiqbolli hisoblanadi; Soliq kodeksining 480⁴-moddasi vakala mexanizmini rasman tan olib, QQS imtiyozini joriy etgani ijobiy dastlabki qadamdir. Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi [6] va Markaziy bankning AAOIFga a'zoligi [7] AAOIFI/IFSB standartlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish uchun institutsional asos yaratadi; ustuvor yo'nalish — birinchi navbatda AAOIFI Islom moliyasi standarti №13 va №12 [33; 34] asosida milliy amaliy qo'llanma, so'ngra IFSB-23 [27] asosidagi Model C ni pilot tartibida sinovdan o'tkazish (4-jadval).

4-jadval. Institutsional islohotlar paketi (bloklar bo'yicha)¹¹

Blok	Muammo / asos sabab	Taklif	Mas'ul institut
A. Soliq	378-modda 23-band faqat qimmatli qog'ozlarga tegishli	Real sektorga bog'langan maqsadli imtiyozni investitsiya hisobvaraqlariga kengaytirish	Moliya vazirligi
B. Prudensial	PLS aktivlari an'anaviy kredit bilan bir xil baholanadi	IFSB-23 asosidagi Model C (pilot, cheklangan hajm)	Markaziy bank
C. Majburiy rezerv	3002-5-son Nizom 1-ilovasida investitsion depozit uchun istisno yo'q	Ro'yxatga alohida band yoki past koeffitsiyentli rejim kiritish	Markaziy bank
D. Investor himoyasi	Yagona NPL mezoni yetarli emas	Ko'p o'lchovli eligibility framework	Markaziy bank
E. Islom moliyasi asosida governance	Milliy standartlashtirish endi boshlanmoqda	AAOIFI SS-12/13 asosida milliy qo'llanma	Islom moliyasi kengashi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot RQ1–RQ3 savollariga javob berib, shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda mudoraba, mushoraka va vakala-istismor instrumentlarining kengaymasligini cheklovchi asosiy omil mahsulot assortimentining torligi emas, balki bu instrumentlarning soliq, prudensial (majburiy rezerv va kapital monandligi) va investor-himoya rejimlari bilan institutsional jihatdan to'liq moslashtirilmaganligidir. Birlamchi huquqiy matnlarning bevosita tahlili uchta ilgari qayd etilmagan topilmani ochib berdi: investitsion depozitlar to'liq qaytarish kafolatidan ozod qilinmaydi (O'RQ-1126, 6-modda); ular depozit-kafolati tizimiga rasman kiritilmoqda (O'RQ-1031, 3- va 14-modda); ular majburiy rezerv [21] va kapital monandligi [22] rejimlarida ham hech qanday maxsus istisnoga ega emas. Bu uch topilma birgalikda O'zbekiston qonunchiligining investitsion depozitlarni xalqaro AAOIFI/IFSB PSIA rejimidan farqli ravishda, an'anaviy depozitga yaqinlashtirish yo'nalishida rivojlanayotganini ko'rsatadi — bu, ehtimol, ongli iste'molchi-himoya siyosati natijasi bo'lsa-da, PLS instrumentining iqtisodiy mohiyati bilan institutsional ziddiyat yaratadi.

11 Manba: Muallif ishlanmasi.



Tadqiqotning nazariy hissasi — agentlik va axborot assimetriyasi nazariyalarini [23; 24; 25] institutsional nazariya [28] va moliyaviy vositachilik nazariyasi [29] bilan birlashtirgan holda, investitsion depozitning to'rt qatlamli (islom moliyasi tamoyillari, huquqiy-regulyativ, depozit-kafolati, majburiy rezerv) tasnif modelini taklif etishidadir — bu model boshqa rivojlanayotgan islomiy moliya bozorlarida ham qo'llanilishi mumkin. Amaliy hissa esa besh yo'nalishli (soliq, kapital monandligi, majburiy rezerv, investor-himoya, Islom moliyasi asosida governance) institutsional islohotlar paketida ifodalanadi, u ushbu ziddiyatni bosqichma-bosqich, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan tarzda bartaraf etishga qaratilgan. Iqtisodiy sohada asosiy amaliy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- Real sektorga bog'langan maqsadli soliq imtiyozini mudoraba investitsion depozitlariga kengaytirish (Moliya vazirligi, o'rta muddatli);
- IFSB-23 alpha-koeffitsiyentiga asoslangan, Bahrayn tajribasidagi kabi aniq raqamli qiymat bilan pilot kapital rejimini (Model C) joriy etish (Markaziy bank, qisqa-o'rta muddatli);
- 3002-son Nizomning rezerv shakllantiriladigan majburiyatlar ro'yxatiga (1-ilova) investitsion depozit uchun alohida band yoki past koeffitsiyentli rejim kiritish (Markaziy bank, qisqa muddatli);
- Ko'p o'lchovli eligibility framework asosida investorlarni himoya qilish mexanizmini joriy etish (Markaziy bank, qisqa-o'rta muddatli);
- AAOIFI Islom moliyasi standarti №12/13 asosida milliy amaliy qo'llanma ishlab chiqish (Islom moliyasi kengashi, qisqa muddatli).

Tadqiqot bir qator metodologik cheklolarga ega: uzoq muddatli statistik vaqt qatorlari yetarli emasligi sababli miqdoriy (regressiya asosidagi) tahlil o'tkazilmadi, barcha xulosalar tasviriy statistika va institutsional-huquqiy dalillarga asoslanadi; qimmatli qog'ozlar bozoridagi mablag'lar oqimining sektorlar kesimidagi taqsimoti bo'yicha emitent-darajasidagi statistika mavjud emasligi sababli bu masala ochiq savol sifatida qoldirildi; taklif etilgan majburiy rezerv va kapital monandligi bo'yicha differensiatsiya modellarining O'zbekiston huquqiy-prudensial tizimiga moslashtirilishi alohida, chuqurroq me'yoriy-huquqiy tadqiqotni talab qiladi.

Quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: (1) mikro-ma'lumotlar asosida mudoraba/mushoraka portfelining ishlash ko'rsatkichlarini panel-ma'lumot usulida baholash; (2) majburiy rezerv va kapital monandligi bo'yicha differensiatsiya modellarining moslashtirilishini huquqshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilish; (3) Islom moliyasi kengashi tomonidan birinchi standartlar qabul qilinganidan so'ng, ularning bank amaliyotiga ta'sirini baholovchi amalga oshirish (implementation) tadqiqoti; (4) qo'shni bozorlar (Indoneziya, Turkiya, Qozog'iston) bilan mikro-darajadagi qiyosiy tahlil, tegishli birlamchi ma'lumotlar ochiq manbalarda mavjud bo'lgach.

Yakun sifatida ta'kidlash lozimki, taklif etilgan besh yo'nalishli islohotlar paketi bir vaqtning o'zida emas, balki bosqichma-bosqich, har bir yo'nalish bo'yicha mas'ul institutning tayyorgarlik darajasiga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv, bir tomondan, bank tizimining prudensial barqarorligini saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa, mudoraba, mushoraka va vakala-istismor instrumentlarining tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi salohiyatini bosqichma-bosqich, boshqariladigan tarzda ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dusuki, A.W. (2008). Banking for the poor: The role of Islamic banking in microfinance initiatives. *Humanomics*, 24(1), 49–66. <https://doi.org/10.1108/08288660810851469>
2. Zaaba, N.I.M.A., & Hassan, R. (2019). Why Islamic banks are reluctant to offer Musharakah Mutanaqisah for home financing: The case of Maybank Islamic and Affin Islamic Bank. *Turkish Journal of Islamic Economics*, 6(1), 51–66. <https://doi.org/10.26414/A044>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 3536-son qarori (2024-yil 26-iyul) // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7036330>
4. NORMA.uz. (2024, 29-iyul). Mikromoliyaviy tashkilotlar qanday islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatadilar. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/mikromoliyaviy_tashkilotlar_qanday_islomiymoliyalashtirish_hizmatlarini_kursatadilar
5. Gazeta.uz. (2026, 16-iyun). Исламский банкинг, сукук и стандарты. ЦБ — о развитии исламского финансирования в Узбекистане. <https://www.gazeta.uz/ru/2026/06/16/islamic-finance/>
6. O'zbekiston Respublikasining "Ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1126-son Qonuni (2026-yil 27-mart) // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8099403>
7. AAOIFI. (2026, May 27). Central Bank of Uzbekistan joins AAOIFI as a regulatory member to strengthen Islamic finance in its jurisdiction [Press release PR/04/2026]. <https://aaoifi.com/announcement/central-bank-of-uzbekistan-joins-aaoifi-as-a-regulatory-member-to-strengthen-in-islamic-finance-in-its-jurisdiction/?lang=en>



8. Archer, S., Karim, R.A.A., & Al-Deehani, T. (1998). Financial contracting, governance structures and the accounting regulation of Islamic banks: An analysis in terms of agency theory and transaction cost economics. *Journal of Management and Governance*, 2(2), 149–170. <https://doi.org/10.1023/A:1009985419353>
9. Archer, S., Karim, R.A.A., & Sundararajan, V. (2010). Supervisory, regulatory, and capital adequacy implications of profit-sharing investment accounts in Islamic finance. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 1(1), 10–31. <https://doi.org/10.1108/17590811011033389>
10. Khan, T., & Ahmed, H. (2001). Risk Management: An Analysis of Issues in Islamic Financial Industry (Occasional Paper No. 5). Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI), Islamic Development Bank.
11. Warninda, T.D., Ekaputra, I.A., & Rokhim, R. (2019). Do Mudarabah and Musharakah financing impact Islamic Bank credit risk differently? *Research in International Business and Finance*, 49, 166–175. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2019.03.002>
12. Shahari, F., & Rahman, M.S. (2020). Can profit and loss sharing (PLS) financing instruments reduce the credit risk of Islamic banks? *Empirical Economics*, 61, 1397–1414. <https://doi.org/10.1007/s00181-020-01912-5>
13. Ahmed, H. (2002). Financing microenterprises: An analytical study of Islamic microfinance institutions. *Islamic Economic Studies*, 9(2), 28–64.
14. Waqas, H., Buriev, A.A., Khadjieva, I.S., Po'latov, Y., & Umurzakova, D. (2025). Factors influencing the small and medium enterprises' intentions towards Islamic finance in Uzbekistan. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, ahead-of-print. <https://doi.org/10.1108/JIABR-11-2023-0388>
15. Asadov, A., Turaboev, I., & Yildirim, R. (2023). Prospects of Islamic capital market in Uzbekistan: Issues and challenges. *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 17(1), 102–123. <https://doi.org/10.1108/IMEFM-04-2022-0145>
16. Po'latov, S. (2024). Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari. *Green Economy and Development*, 2(1). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a778
17. Aminova, N.U. (2026). Opportunities for developing Islamic finance in Uzbekistan: Evidence, legal pathways, and market design. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 7(4), 12–18.
18. Kuldashiev, J.Q. (2026). O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. *O'zbekiston sug'urta bozori*, 3(2), 67–70. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss2/388
19. Abdullaev, A., & Bekimbetova, G. (2024). Global experiences in Islamic finance: An insight for Uzbekistan. *Research of Economics, Management, Business and Education*, 1(1), 31–44.
20. Asadov, A., & Turaboev, I. (2023). Legal challenges hindering the development of Islamic finance in Uzbekistan. *Access to Justice in Eastern Europe*, 6(4). <https://doi.org/10.33327/AJEE-18-6.4-a000405>
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 3002-son qarori (2018-yil 25-aprel) va uning barcha keyingi tahrirlari (jumladan 3002-5-son tahrir, 2025-yil 23-dekabr) // URL: <https://lex.uz/docs/-3697778>
22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 21/6-son qarori (ro'yxat raqami 3697, 2025-yil 28-oktabr; kuchga kirish sanasi — 2026-yil 1-yanvar) // URL: <https://lex.uz/uz/docs/7793613>
23. Jensen, M.C., & Meckling, W.H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
24. Akerlof, G.A. (1970). The market for "lemons": Quality uncertainty and the market mechanism. *Quarterly Journal of Economics*, 84(3), 488–500.
25. Stiglitz, J.E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *American Economic Review*, 71(3), 393–410.
26. Archer, S., & Karim, R.A.A. (2006). On capital structure, risk sharing and capital adequacy in Islamic banks. *International Journal of Theoretical and Applied Finance*, 9(3), 269–280. <https://doi.org/10.1142/S0219024906003627>
27. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2023). IFSB-23: Revised Capital Adequacy Standard for Institutions Offering Islamic Financial Services. Kuala Lumpur: IFSB.
28. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press.
29. Diamond, D.W., & Dybvig, P.H. (1983). Bank runs, deposit insurance, and liquidity. *Journal of Political Economy*, 91(3), 401–419. <https://doi.org/10.1086/261155>
30. Chapra, M.U. (1985). *Towards a Just Monetary System*. Leicester: The Islamic Foundation.



31. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice (2nd ed.). Singapore: John Wiley & Sons.
32. World Bank, & Islamic Development Bank Group. (2016). Global Report on Islamic Finance 2016: A Catalyst for Shared Prosperity? Washington, DC: World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-0926-2>
33. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari'ah Standard No. 13: Mudarabah. Manama: AAOIFI.
34. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari'ah Standard No. 12: Sharikah (Musharakah) and Modern Corporations. Manama: AAOIFI.
35. Central Bank of Bahrain (CBB). Rulebook Volume 2 — Islamic Banks, Module CA: Capital Adequacy (alpha coefficient for unrestricted PSIA set at 30%). Manama: CBB. https://www.cbb.gov.bh/wp-content/uploads/2019/01/Volume-2_Module-CA_Part-1.pdf
36. AAOIFI. (2025). State Bank of Pakistan adopts additional four new AAOIFI Shari'ah standards [Press release]. <https://aaoifi.com/announcement/state-bank-of-pakistan-adopts-additional-four-new-aaoifi-shariah-standards/?lang=en>
37. Kursiv Media Uzbekistan. (2026, 1-iyul). From Islamic finance to digital transformation: What lies ahead for Uzbekistan's banks. <https://uz.kursiv.media/en/2026-07-01/from-islamic-finance-to-digital-transformation-what-lies-ahead-for-uzbekistans-banks/>
38. Kursiv Media Uzbekistan. (2026, 6-avgust). Uzbek banks can now switch to Islamic finance. Here's how it works. <https://uz.kursiv.media/en/2026-08-06/uzbek-banks-can-now-switch-to-islamic-finance-heres-how-it-works/>
39. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonun bilan yangi tahrirda tasdiqlangan, keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan), 378-modda, 23-band; 71²-bob (480³–480⁴-moddalar) // URL: <https://lex.uz/mact/-1286558>
40. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaxsiy investitsiya hisobvarag'ini ochish va undagi mablag'larning hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 331-son qarori (2024-yil 13-iyun, 15-iyunda kuchga kirgan) // URL: <https://lex.uz/docs/6972641>
41. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (1996-yil 25-aprel, 216-I-son, O'RQ-1126 orqali kiritilgan 2026-yildagi o'zgartirishlar bilan) // URL: <https://lex.uz/acts/-4581969>
42. O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-1031-son Qonuni (2025-yil 18-fevral) // URL: <https://lex.uz/docs/7389404>
43. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 20/4-son qarori (ro'yxat raqami 3336, 2021-yil 26-noyabr) va uning keyingi tahrirlari (jumladan 3336-3-son tahrir, 2025-yil 22-iyul) // URL: <https://lex.uz/docs/-5744540>
44. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Banklarda aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 22/3-son qarori (ro'yxat raqami 3937, 2026-yil 10-sentabr; kuchga kirish sanasi — 2027-yil 1-yanvar) // URL: <https://www.lex.uz/ru/docs/-8473203>
45. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). 2025-yil yakuni bo'yicha Moliyaviy barqarorlik sharhi. https://cbu.uz/en/press_center/releases/4124365/



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
